

ZAMONAVIY YONDASHUVLAR ASOSIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING NUTQ MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH

Nizomi nomidagi toshkent davlat pedagogika universitetining "Òzbek tili va uni
òqitish metodikasi" kafedrasida òqituvchisi

Tuxtayeva Mehriyo Shavkatovna

Nizomiy nomidagi TDPU ning "Boshlang'ich ta'lim" fakulteti

Abdukamalova Tursunoyxon Abdulla qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida bo'lajak o'qituvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning usullari tahlil etilgan. Nutq madaniyati ta'lim jarayonining asosiy jihatlaridan biri sifatida o'qituvchining professional kompetensiyasini shakllantiradi. Zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchilarning nutq madaniyati o'quvchilar bilan samarali va ta'sirli muloqot o'rnatish, bilimlarni aniq va tushunarli tarzda etkazish, shuningdek, o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga yordam berishda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: nutq madaniyati, ta'lim sifati, pedagog, rivojlanish, zamonaviy usullar.

Abstract: This article analyzes the methods of improving the methodology of developing the speech culture of future teachers based on modern pedagogical approaches. Speech culture forms the teacher's professional competence as one of the main aspects of the educational process. In the modern education system, the speech culture of teachers is important in establishing effective and effective communication with students, conveying knowledge clearly and comprehensibly, as well as helping students' personal development.

Key words: speech culture, quality of education, pedagogue, development, modern methods.

Аннотация: В данной статье анализируются методы совершенствования методики развития речевой культуры будущих учителей на основе современных педагогических подходов. Культура речи формирует профессиональную компетентность учителя как один из основных аспектов образовательного процесса. В современной системе образования речевая культура учителей имеет важное значение для установления эффективного и результативного общения с учащимися, четкой и понятной передачи знаний, а также содействия личностному развитию учащихся.

Ключевые слова: культура речи, качество образования, педагог, развитие, современные методы.

O'qituvchilarning nutq madaniyati, pedagogik faoliyatda muvaffaqiyatning muhim omili sifatida ko'rib chiqiladi. Bu soha bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, ularning asosiy maqsadi - o'qituvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirish, ta'lim jarayonida samarali muloqot o'rnatish va o'quvchilarga ta'sirli ta'lim berishni ta'minlashdir.

Nutqiy kommunikativ layoqatning rivojlanishi bilan bog'liq muammolar pedagogika va psilogiyaga oid asarlarda batafsil yoritilgan. Ular sirasiga G.S. Altshuller, V.I. Andreev, S.S. Goldektrixt, V.I. Zagvyazinskiy, V.A. Kan-Kalik, A.A. Kirsanov, M.I. Maxmutov, R.Safarova, X.Muxitdinova, Sh.Abduraimovalarning ishlarini ko'rsatish mumkin. Nutq madaniyati muammolari taniqli tilshunoslar V.V. Vinogradov, B.N. Golovin, D.E. Rozental, G.O. Vinokur, N.Maxmuldov, X.Ne'matovlarning ishlarida batafsil yoritilgan. Shaxslararo muloqot madaniyatini rivojlantirish bilan bog'liq asosiy holatlar M.M. Baxtin, V.S. Bibler kabi olimlarning ishlarida o'z ifodasini topgan¹

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, o'qituvchining nutqi ta'lim jarayonida samarali muloqot o'rnatishda muhim rol o'ynaydi. Nutq madaniyati nafaqat tilni to'g'ri ishlatishni, balki o'quvchilar bilan til orqali hissiy va intellektual aloqani o'rnatishni ham o'z ichiga oladi. Pedagogik nutqning samaradorligi o'qituvchining tilni ishlatish, muloqotda ishtirok etish va o'quvchilarni tinglash kabi ko'nikmalariga bog'liq. O'qituvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, o'yinlar, debatlar va boshqa interaktiv metodlar qo'llaniladi. Bu metodlar o'qituvchilarning kommunikatsion ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Bo'lajak o'qituvchi o'z nutqini takomillashtirishi uchun ta'lim va tarbiya jarayonida quyidagi yo'nalishlarga doimiy amal qilib borishi lozim:

- o'zbek adabiy tili qonuniyatlari va normalarini mukammal bilishi; - o'z-o'zini va nutqiy faoliyatini muntazam nazorat qilishi; - o'zining nutqiy madaniyatini doimiy

¹ Sodiqov H.bo'lajak o'qituvchi o'z nutqini takomillashtirib borishi uchun amal qilishi lozim bo'lgan jihatlar. <file:///C:/Users/User/Downloads/2697-%D0%A2%D0%B5%D0%BA%D1%81%D1%82%20%D1%81%D1%82%D0%B0%D1%82%D1%8C%D0%B8-6751-1-10-20211004.pdf>

rivojlantirib borishi; - nutqiy muloqotnint barcha holatlarida adabiy nutq qoidalarini egallash uchun o'ziga sharoit yaratishi²

Zamonaviy pedagogika, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim va interaktiv metodlar asosida bo'lajak o'qituvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy ishlar ham mavjud. Tadqiqotchilar, pedagogik jarayonni interaktiv tarzda olib borish orqali, o'qituvchilarning nutq madaniyatini faollashtirishni ko'rib chiqadilar. Pedagogik texnologiyalar, internet resurslari va multimediya vositalari orqali o'qituvchilarga tilni yanada samara bilan ishlatish imkoniyatlari taqdim etiladi. Shuningdek, o'qituvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirishda guruh ishlari va rolli o'yinlar, muhokamalar orqali nutqni yaxshilashga yo'naltirilgan metodlar samarali natijalar ko'rsatadi.

O'qituvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirishda psixologik va ijtimoiy omillarni hisobga olish muhimdir. Nutq madaniyati nafaqat tilning to'g'ri ishlatilishi, balki o'quvchilar bilan psixologik, emosional muloqot o'rnatishni ham o'z ichiga oladi. O'qituvchilarning shaxsiy xususiyatlari, psixologik tayyorgarlik va o'zaro munosabatlar ham nutq madaniyatining shakllanishiga ta'sir qiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'qituvchilarning o'zini tutish, o'z fikrini aniq ifodalash va o'quvchilarni tinglash qobiliyatlari ularning pedagogik faoliyatida muvaffaqiyatga erishishlariga yordam beradi.

Pedagogik texnologiyalar va treninglar orqali o'qituvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirishga oid ilmiy tadqiqotlar ko'proq e'tibor qaratadi. O'qituvchilarga treninglar orqali nutqni to'g'ri ishlatish, o'quvchilarni tinglash va javob qaytarish kabi ko'nikmalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan metodlar taqdim etiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'qituvchilarning treninglar va seminarlar orqali nutq madaniyatini oshirish ularga samarali pedagogik usullarni o'rgatadi va o'quvchilar bilan muloqotda bo'lishda ishonch hosil qilishlariga yordam beradi.

Ilmiy asarlar tahlilidan shuni xulosa qilish mumkinki, bo'lajak o'qituvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar, interaktiv metodlar, psixologik va ijtimoiy omillarni hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Nutq madaniyatini rivojlantirish o'qituvchilarga nafaqat tilni to'g'ri ishlatishni, balki o'quvchilar bilan samarali muloqot o'rnatishni va ta'lim jarayonini yanada samarali qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, treninglar, seminarlar va pedagogik texnologiyalar orqali o'qituvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini mustahkamlashning samaradorligi ko'rsatilgan. Bu tadqiqotlar

² Maxmudov N.M. O'qituvchi nutq madaniyati. Darslik. -Toshkent: 2007.- 167 b.

metodikalarni takomillashtirish va o'qituvchilarning pedagogik faoliyatida muvaffaqiyatga erishishlariga yordam beradi.

Quyida zamonaviy yondashuvlar asosida bo'lajak o'qituvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirishga oid ba'zi ilmiy asarlar tahlil qilinadi.

“O'zbek tilining izohli lug'ati”da. “Nutq-fikrni so'z orqali ifodalash qobiliyati mahorati”, - deb taqidlanishi bilan birga uning amaldagi, so'zlashuv jarayonidagi axamiyati va “Poetik nutq. Badiiy nutq. Og'zaki nutq. Jamoat nutqi oldida aytiladigan, o'qiladigan gap, vaz. Otashin nutq, xayajonli nutq. Notiqning nutqi. Nutq so'zlamog. Nutqqa tayorlanmog” kabi turlari korsatilgan. Xamdo'stlik mamlakatlari psixolog olimlari A.B. Petrovskiy, M.G.Yaroshevskiylarning taqitlashicha: - “nutq-til vositasida inson faoliyatini o'zgartirishdagi, rivojlanishdagi muloqot shakli. Nutq shaxsiy faoliyatini nazorat qilish va boshqarish maqsadini axborot asosida amalga oshirish jarayoni. Psixologiyada nutq inson funktsiyasi ruxiyatining oliy tizimi. Bu tafakkur, ong, xotira, xis-tuygular va boshqalar”.

S. I. Ojegovning “Словарь русского языка” lug'atida:

1. Nutq – bu gapirish qobiliyati. Nutqni o'zlashtirish. Nutq qiyinchiliklari. Aniq ifodalangan nutq. San'at bilan chiroyli gapirish, nutq qilish.
2. Til mahoratining turli ko'rinishi. She'riy nutq, og'zaki nutq va yozma nutq. Gapirish nutqi.
3. Til jarangdorligi, musiqa nutqi, ko'p tilli nutq.
4. Gaplashish, suhbatlashish. Aqlli nutqni eshitish.
5. Ko'pchilik oldida so'zga chiqish. Notiq nutqi. Tabrik nutqi”

O'zbekistonning faylasuf olimlaridan Y. Toirov, A. Choriyev, A. O'tamurodov, I. To'xtarov, J. Ramatovlarning ta'kidlashicha “Nutq- inson tomonidan ijtimoiy-tarixiy tajribani o'zlashtirish, avlodlarga uzatish yoki kimmunikatsiya o'rnatish, o'z shaxsiy xarakterlarini rejalashtirish va amalga oshirish maqsadida tildan foydalanish jarayoni. Nutq – axborot, xabar, ma'lumot va yangi bilim berish, aqliy toposhiriqlarni yechish faoliyatidan iborat. Agarda til aloqa vositasi bo'lsa, nutq esa aynan o'sha jarayonlarni amalga oshirishdir. Nutq rivojlanish davrlari: 1) 2 oydan 11 oygacha; 2) 11 oydan 19 oygacha; 3) 19 oydan 3 yoshgacha”.

Har qanday ta'lim-tarbiyaviy mashg'ulot oldidan bir necha bor o'z nutqingizni yozib olib tinglang va xatolaringizni tuzatishga harakat qiling, nutqingizni qaytarib mashq qiling. Nutqingizni rang-barang badiiy-adabiy so'zlar bilan boyiting. O'z taassurotlaringizni qo'shgan holda boyitib, to'ldirib boring. O'qituvchi nutqining mukammalligi, tozaligi, ta'sirchanligi bilan o'quvchilar e'tiborini jalb qiladi, ular qalbiga yo'l topadi, hech qanday qiyinchiliksiz kasbiy pedagogik faoliyatida duch

keladigan barcha ziddiyatlarni bartaraf etadi. Natijada o'qituvchi pedagogik faoliyatda aslo toliqmaydi, asab tizimi doimo sog'lom bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sodiqov H. bo'lajak o'qituvchi o'z nutqini takomillashtirib borishi uchun amal qilishi lozim bo'lgan jihatlar.
2. Maxmudov N.M. O'qituvchi nutq madaniyati. Darslik. -Toshkent: 2007.- 167 b.
3. R.G.Safarova. Pedagogikada madaniyatshunoslik yondashuvining rivojlanish tendensiyalari. // "Zamonaviy uzluksiz ta'limni raqamlashtirish: pedagogika sohasidagi zamonaviy tendensiyalarva rivojlanish omillari" mavzusida Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to'plami. Andijon 2022. B. 20-23
4. Bo'ronov, N. (2024). Media Savodxonlikni Oshirishda Vr Laboratoriyaning Tashkiliy Modul Mexanizmi. Tamaddun Nuri Jurnali, 5(56), 454-457.
5. Nazim, B. R. (2022). O'zbek tilshunosligida takror va uning uslubiy xususiyatlari ba'zi adabiyotlarda, ayrim tadqiqot ishlarida o'rganilgan. Erkin Vohidov ijodida doston janri alohida ahamiyatga ega. Mazkur maqolada Erkin Vohidov "Nido" dostonining til xususiyatlari haqida so. International Conference On Learning And Teaching, 1(3), 500-504.
6. Бурунов, Н., & Шоғуломов, Д. (2020). Preventing Information Hazards In Online Publications Предотвращение. ББК 60 Е244 Ответственный редактор: Гуляев Герман Юрьевич, кандидат экономических наук Е244, 24.
7. Bo'ronov, N. M., & Nurutdinova, M. (2019). XXI Asrda Diniy Ekstremizm Tahdidlari. In World Science: Problems And Innovations (pp. 289-290).
8. Egamberdiyeva, D., & Kuchkorova, K. (2023). Development of methodological programs in a foreign language. Interpretation and researches, 1(9).
9. Egamberdiyeva, D. U. (2023). The Use Of Visualization In The Formation Of Lexical Speaking Skills. Экономика и социум, (12 (115)-1), 213-216.
10. Egamberdiyeva, D., & Uzokboyeva, D. (2023). Methods Of Teaching Speech Etiquette In English Lessons. Interpretation and researches, 1(9).
11. Suyarov, A. (2023). Innovatsion Usullar–Talabalarning Ta'lim Va Kognitiv Faoliyatini Tashkil Ettirishning Yangi Tarzi. Philological issues are in the eyes of young researchers, 1(1).
12. Suyarov, A., & Axmadov, H. Tog Jinslari Va Ularning Fizikaviy-Mexanikaviy Xossalari. Тошкент-2021, 28.
13. Khamidova, M. A., & Orifkhonova, N. O. (2024). The Importance Of Micro And Macroelements In Microclonal Propagation Of Potatoes. Современное Образование И Исследования, 1(1), 195-197.

14. Rasulovna, N. Z. (2024). Some Aspects of Organizing and Improving Students' Oral Speech at Non-Language Faculties. *Miasto Przyszłości*, 49, 373-375.
15. Nazirova, Z. (2023). Methods Of Measurement Of Cornea Diameter In Children. *Science and innovation*, 2(D12), 482-485.
16. Nazirova, Z. (2023). Improving The Use Of Interactive Methods In Teaching The Russian Language To Veterinary Students. *Science and innovation*, 2(B7), 218-220.
17. Zilola, N. (2022). Xorijiy Tillarni O 'Qitishda Pedagogik Texnologiyalarning Ahamiyati (Rus Tili Misolida). *Ilmiy Tadqiqot Va Innovatsiya*, 1(1), 188-192.
18. Nazirova, Z. R. The Management Algorithm Of Children With Refractory Glaucoma. *Impact Factor*: 4.9, 11.
19. Назирова, З. Р. (2021). The Management Algorithm Of Children With Refractory Glaucoma. *Узбекский Медицинский Журнал*, (Special 1).
20. Rasulovna, N. Z. (2021, April). Application Of Video Materials In The Formation Of Competence Of Veterinary Students In The Study Of The Russian Language. In *Archive of Conferences* (Vol. 18, No. 1, pp. 37-38).
21. Okbaeva, N. (2022, April). Mavzu: Mathematics Darslarini Kuzatis Taхлил Yilish. In *E Conference Zone* (pp. 188-192).
22. Худайназаров, Ф. Х. (2024). Кичик Бизнес Субъектлари Фаолиятини Рақамли Технологиялар Асосида Ривожлантиришнинг Меъёрий-Ҳуқуқий Асослари. *Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural And Social Sciences Scientific Journal*, 266.
23. Худайназаров, Ф. (2023). Исламские Финансы: Проблемы И Решения. *Экономическое развитие и анализ*, 1(8), 109-114.
24. Худойназаров, Ф. Х. (2024). Кичик Бизнес Субъектлари Фаолиятига Инновацион Технологияларни Жорий Этиш. *International scientific journal of Biruni*, 3(2), 178-186.
25. Бабажанов, Ю., Окбаева, Н., & Бабажанова, И. (2019). Метод Определения Коэффициента Эффективности Газопровода. In *Актуальные проблемы математики и информатики: теория, методика, практика* (pp. 58-59).
26. Окбоева, Н. (2018). Уравнение Лапласа И Гармонические Функции. In *Фундаментальные научные исследования* (pp. 63-66).